

TIBBIYOTDA QO'LLANISHIGA DOIR YO'RIQNOMA PIRANTEL

Preparatning savdo nomi: Pirantel

Ta'sir etuvchi modda (XPN): pirantel

Dori shakli: tabletkalar

Tarkibi:

Har bir tabletka quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: pirantel pamoat 250 mg pirantelga ekvivalent;

yordamchi moddalar: mikrokristall sellyuloza (PH 102), makkajo'xori kraxmali, kroskarmelloza natriy, povidon (PVP K-30), kolloid kremniy dioksidi, magniy stearati va tozalangan suv.

Ta'rifi: bir tomonida siniq chiziqli kapsula shaklidagi sariq rangli tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi: Antigelmint preparatlar. Nematodozni davolash uchun preparatlar. Tetragidropirimidin hosilalari. Pirantel.

ATX kodi: P02CC01

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Pirantel pamoat – gelmintlarga qarshi preparat hisoblanadi. Ushbu preparat ichaklar parazitlari (gijjalari) nerv tizimini falaj (paralich) qilish orqali ta'sir etadi. So'ngra parazit axlat bilan chiqadi. Pirantel ovqatlanishdan yoki kun vaqtidan qat'i nazar buyurilishi mumkin, bunda, terapiyagacha va terapiya vaqtida ichaklarni tozalash talab qilinmaydi. Kam hollarda uchli yoki dumaloq chuvalchaglarni bartaraf qilish uchun ikkinchi doza talab qilingan. Pirantel sut yoki mevali sharbat bilan birga qabul qilinishi mumkin.

Farmakokinetikasi

Pirantel pamoat deyarli ovqatni hazm qilish yo'lidan so'rilmaydi (3,5% dan kamroq). Bir martali 10 mg/kg tana vazni dozasi qo'llanilganidan so'ng plazmada pirantel konsentratsiyasi kam bo'lgan – 1–3 soat davomida 0,05 dan 0,13 mg/ml gacha. Pirantel pamoat qonga so'rilgan holda, jigarda metabollanadi. N-metil-1–3-propandiamin asosiy metabolit hisoblanadi, uning deyarli 1,2–4,6% siydik bilan chiqariladi. 93%dan ko'prog'i o'zgarmagan shaklda axlat bilan chiqariladi.

Qo'llanilishi

Pirantel tabletkalari gelmintozlar: askaridoz, enterobioz, ankilostomoz, nekatoroz, trixostrogilezni davolash uchun mo'ljallangan.

Qo'llash usuli va dozalari

Dozalash

Kunning istalgan vaqtida sutkada 1 marta ichga buyuriladi: pirantel qo'llanishidan oldin ovqatlanishdan saqlanish yoki surgi dorilarni qabul qilish talab qilinmaydi.

Enterobiozda va enterobioz askaridoz bilan birga paydo bo'lgan holatda, katta yoshdagi pasiyentlarga va bolalarga preparat bir marta 10 mg/kg tana vazni dozasida yoki quyidagi sxemaga asosan buyuriladi:

Yoshi	Preparat dozasi	
3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar	250 mg	1 ta tabletka
6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar	500 mg	2 ta tabletka
12 yoshdan katta yoshdagi bolalar va kattalar, tana	750 mg	3 ta tabletka

vazni 75 kg dan kamroq		
Katta yoshdagi pasiyentlar	1000 mg	4 ta tabletka

Og'ir darajali shakldagi kasalliklar yuqishi holatlarida ikki karra doza buyuriladi – 2–3 kun davomida 20 mg/kg sutkada 1–2 marta qabul qilinadi.

Takroriy kasallik yuqishini profilaktika qilish uchun pirantelni takroran 3 haftadan keyin 10 mg/kg dozada qabul qilish tavsiya etilgan.

Izolyasiyalangan askaridozda – sutkada bir marta 5 mg/kg dozada qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlar

Preparat, odatda yaxshi o'zlashtiriladi.

Bo'lishi mumkin: epigastral sohada og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, diareya, anoreksiya; kam hollarda – bosh og'rishi, bosh aylanishi, seruyqulik, yuqori toliquvchanlik, teri toshmasi, jigar transaminazlari faolligi oshishi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Pirantel pamoatga yoki tarkibidagi yordamchi moddalardan istalgan biriga yuqori sezuvchanlik bo'lgan pasiyentlarga, shuningdek jigar yetishmovchiligi bo'lgan pasiyentlarga pirantel tabletkalari qo'llash mumkin emas.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Piperazin: pirantel va piperazin preparatlarining birga qo'llanishi pirantel samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Levamisol: levamisol bilan bir vaqtda qo'llanilganida pirantel toksikligi ko'payadi.

Maxsus ko'rsatmalar

Pirantel qo'llanishida quyidagilar hisobga olinishi kerak:

Allergiya. Agar Sizda qachondir pirantelga biron-bir odatdan tashqari yoki allergik reaksiyalar kuzatilgan bo'lsa, o'z shifokoringizga ma'lum qiling. Shuningdek, agar Sizda biron-bir boshqa moddalarga, masalan, oziq-ovqat mahsulotlariga, konservantlarga yoki bo'yoq moddalariga allergiya bo'lsa, o'z shifokoringizga ma'lum qiling.

Homiladorlik. Pirantel, agar shifokor tomonidan tavsiya etilmagan bo'lsa, homiladorlik vaqtida qo'llanilmasligi kerak. Homilador ayollarda tadqiqotlar o'tkazilmagan. Biroq, hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda pirantel tug'ma nuqsonlarni yoki boshqa muammolarni chaqirishi to'g'risida ma'lum qilinmagan.

Laktasiya. Pirantelning faqat ozgina miqdori organizmga so'riladi. Pirantel emadigan bolalarda muammolarni chaqirmasligi ma'lum qilingan. Biroq, pirantel ko'krakdan emizish davrida qo'llanishi tavsiya etilmaydi.

Bolalar. Ushbu dori preparati 2 yosh va undan katta yoshdagi cheklangan sonli bolalarda testdan o'tkazilgan va preparat terapevtik dozalarda bolalarda katta yoshdagi pasiyentlarga nisbatan boshqa nojo'ya ta'sirlar yoki muammolarni chaqirishi ma'lum qilinmagan.

Keksa yoshdagi pasiyentlar. Keksa yoshdagi pasiyentlarda pirantel qo'llanishini boshqa yosh guruhlarida qo'llanishi bilan solishtiradigan maxsus axborot yo'q.

Boshqa dori preparatlari. Siz pirantelni qabul qilayotganingizda, o'z davolovchi shifokoringiz Siz quyidagi preparatlardan biron-birini qabul qilayotganingiz yoki qabul qilmayotganingizni bilishi juda muhim:

•*Piperazin:* pirantel va piperazin preparatining birga qo'llanishi pirantel samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Sog'liq bilan bog'liq boshqa muammolar. Sog'liq bilan bog'liq boshqa muammolar bo'lishi pirantel qo'llanishiga ta'sir etishi mumkin. Agar Sizda sog'liq bilan bog'liq biron-bir boshqa muammolar bo'lsa, albatta, bu haqda o'z davolovchi shifokoringizga ma'lum qiling, ayniqsa: jigar kasalligi.

Buyrak yetishmovchiligida qo'llanishi: ma'lumotlar yo'q.

Og'ir darajali buyrak yetishmovchiligi (tugunsimon filtrasiya tezligi <10 ml/daqqa) bo'lgan pasiyentlarga ehtiyotkorlikka rioya qilish tavsiya etiladi, chunki tizimli ta'sir oshishi mumkin.

Jigar funksiyalari buzilishlarida qo'llanishi: pirantel jigar funksiyalari buzilishlarida qo'llanishi mumkin emas.

Homiladorlik va laktasiya davrida qo'llanishi

Eksperimental tadqiqotlarda pirantel qo'llanilganida teratogen ta'sir aniqlanmagan, biroq homiladorlikda ehtiyotkorlik bilan buyuriladi. Preparat deyarli adsorbsiyalanmaydi va ko'krak sutiga o'tmaydi, laktasiya davrida preparat qo'llanilganida emizishni to'xtatish talab qilinmaydi.

Avtotransportni va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Ma'lumotlar yo'q.

Dozaning oshirib yuborilishi

So'rilish tezligi kamligi tufayli plazmadagi konsentrasiyasi ham kam bo'ladi. Dozaning oshirib yuborilishi ehtimoliy oqibatlarini vegetativ disfunktsiya, mushak spazmi, et uchishi va madorsizlik, tushkunlik va oxir-oqibat mushak falajligi tufayli asfiksiyani o'z ichiga oladi.

Davolash: Spesifik antidot ma'lum emas. Erta me'dani yuvish hamda nafas olish va arterial bosimni quvvatlash choralari maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Chiqarilish shakli

3 tabletkadan PVX blisterda, 1 yoki 10 ta blister tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonadan berish tartibi

Resept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi:

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili:

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

"BARAKA DORI FARM" MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91.

Tel.: + 998 78 150 97 97; faks: + 998 78 150 97 87

Uyali tel.: + 998 93 388 87 82

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz